



**Erkin SIRLIYEV,**  
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, PhD  
E-mail: [sirlieverkin@gmail.com](mailto:sirlieverkin@gmail.com)

TDPU professori, psixol.f.dok (DSc) N.Umarova taqrizi asosida

### O'ZBEKISTON YOSHLARI HARBIY VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA IRODAVIY SIFATLARNING AHAMIYATI

Аннотация

Mazkur maqola yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning psixologik mexanizmlaridan biri bo'lgan irodaviy sifatlarni takomillashtirish orqali erishish mumkinligi to'g'risida bilim va ko'nikma hosil qilish uchun imkoniyat yaratish bilan birgalikda, shaxsga xos bo'lgan irodaviy sifatlarni takomillashtirishning psixologik amaliyoti uchun zamin yaratadi.

**Kalit so'zlar:** Psixologiya, obyektiv qiyinchiliklar, subyektiv qiyinchiliklar, iroda, irodaviy faoliyat, irodaviy aktlar, chidamlilik, matonat, maqsadga intilish, mardlik, jasurlik, beriluvchanlik, yalqovlik, qat'iyat.

### ЗНАЧИМОСТЬ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ В ФОРМИРОВАНИЕ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА СРЕДИ МОЛОДЁЖЕЙ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье излагаются основы психологической практики совершенствования волевых качеств, присущих личности, в сочетании с предоставлением возможности формирования знаний и умений, которые могут быть достигнуты путем совершенствования волевых качеств, что является одним из психологических механизмов формирования чувства военного патриотизма у молодежи.

**Ключевые слова:** Психология, объективные трудности, субъективные трудности, воля, волевая активность, волевые акты, выносливость, настойчивость, стремление к силе, доблесть, мужество, лень, решительность.

### IT IS HERODIAN IN THE FORMATION OF MILITARY PATRIOTISM IN THE YOUTH OF UZBEKISTAN IMPORTANCE OF ADJECTIVES

Annotation

The article suggests that developing qualities such as masculinity or resourcefulness, physical training, educational enlightenment, healthy family relationships, strong will and a light spirit are essential in achieving this goal. It emphasizes that these qualities are beneficial for individuals in general.

**Key words:** Psychology, objective processes, subjective processes, volitional activity, volitional acts, work, perseverance, aspiration, bravery, courage, dedication, laziness, determination.

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakatimizning tinchligi, osoyishtaligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish, jamiyatimizda adolat hamda qonun ustuvorligiga erishish O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Ichki ishlar vazirligi, Mudoafa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Sud-praktura, qolaversa, mamlakatimizda yashayotgan har bir fuqoroning muqaddas burchidir. Yurtimizda yuqorida nomlari ko'rsatilgan har bir idora sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar Vatan himoyasi, yurt tinchligi hamda davlat kelajagi uchun jonkuyar, oliyjanob, fidoiy, o'z xizmat burchini sidqidildan bajaradigan vijdonli xodimlarni tarbiyalash va yetishtirish vazifasini qo'ymoqda. Chunki, bugungi murakkab sharoitda harbiy xizmatchi va xodimlarning xalq oldidagi nufuzini ko'tarish, ularga bo'lganishonchini mustahkamlash bevosita mana shu islohatlar hamda yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohatlar samarasiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi"[1]. Ma'lumki, "O'zbekiston-2030" strategiyasi [2], "Ta'lim to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi va boshqa qonun hujatlarida yoshlarimizga zamonaviy standartlar asosida ta'lim-tarbiya berish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarish masalasiga alohida e'tibor qaratilayapti. Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida

tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, "Xalq va armiya – bir tanu, bir jondir!" degan ezgu g'oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas'ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g'oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilmoqda.


Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29-iyun oyida "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 267-son Qarorida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, mazkur yo'nalishda davlat va nodavlat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faolligini yanada oshirish, yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini singdirish maqsadida alohida konsepsiya ishlab chiqilgan. Ushbu konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash "Vatan – ulug', burch – muqaddas!" konseptual g'oya ostida tashkil etilib, unda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, har tomonlama rivojlantirish, qat'iy fikr va e'tiqodga ega shaxsni shakllantirish asosiy vazifa etib belgilanadi [3].

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish muammosi dolzarbligi bilan o'ziga xos tarzda alohidalikka ega. Shu bois, O'zbekiston yoshlarida harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish muammosi shaxsning psixologik tayyorgarligi hamda xissiy-irodaviy o'zini-o'zi boshqarish bilan bog'liqligi hech kimga sir emas.

Yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning psixologik mexanizmlari hisoblangan irodaviy sifatlarni rivojlantirishning psixologik omillarini ishlab chiqish, ekstremal

vaziyatlarga tez moslasha olish ko'nikmasini takomillashtirish hamda qiyinchilik talab etadigan xizmat sharoitida shaxs irodaviy sifatlarini shakllantirish zaruratini tug'diradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Iroda insonning o'z maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan ongli faoliyatidir. "Iroda" tushinchasining mohiyatini insonning o'z oldiga maqsad qo'ya olish, o'z his-tuyg'ularini boshqarish, jismi xulqini iroda qilish



Iroda juda murakkab jarayon bo'lib, uni bir necha bosqichlarga bo'lish mumkin:[6] muayyan maqsadni tanlash; maqsadga erishish yo'llarini anglash va shakllantirish; shakllangan fikrlarni mustahkamlash; kutilayotgan ijobiy va salbiy oqibatlarini solishtirib, sabab motivlarini o'rganib, maqsad sari harakatlanish; iroda jarayoni maqsad amalga oshganidan so'ng yakunlanadi.

Maqsadlarning davomiyligi shaxsning individual xususiyatlari, ya'ni maqsadning faoliyatga aylanishi, unga erishilishi uchun qat'iy, zarur muhim qaror qabul qila olish bilan bog'liq. Irodaning kuchi qat'iyatlikda, faoliyatni har qanday qarshiliklar bo'lishiga qaramasdan oxirigacha hal qilishda, o'zining oldiga qo'ygan maqsadga erisha olishiga ishonira olishda, to'siqlar qanday va qay tarzda bo'lishidan qat'iy harakatning faqat qo'yilgan maqsadga erishishga qaratilganligida namoyon bo'ladi.

Iroda ko'rinishlari:

1. Ijobiy-qat'iyatlik, mustaqillik, matonatlik, jasurlik, mardlik, chidamlilik va sabr-toqat;
2. Hissiyotda – hissiyotlarni jilovlash va aql bilan qaror qabul qilish;
3. Salbiy – beriluvchanlik, xudbinlik va yalqovlik.

Irodaviy o'zini o'zi boshqarishning asosiy maqsadi yoshlar o'z ichki imkoniyatlaridan optimal foydalanishiga, uning ijodiy salohiyati ochilishiga, kasbiy hislatlari va qobiliyatlari keng va samarali namoyon bo'lishiga yordam beradigan alohida ruhiy holatlarni shakllantirishdan iborat.

Shunday qilib, o'z organizmida yuz berayotgan jarayonlarni mustaqil ravishda faol o'zgartirish va ularni boshqarish imkoniyati katta ahamiyatga ega. O'zini o'zi boshqarish orqali qisqa vaqtga vaziyatdan kelib chiqib ruhiy jarayonlarni faollashtirish yoki sekinlashtirish, shuningdek, bajariladigan faoliyatni tayyorlash sifatini va uning samaradorligini oshirish mumkin. Masalan, jismoniy mashg'ulot chog'ida shaxs yuzaga keladigan ishonchsizlik hissini bartaraf etishi, o'z jangovar ruhini ko'tarishi, butun imkoniyatlarini safarbar etishi mumkin va h.k.

O'zini o'zi boshqarish usulining turli shakllari yordamida bilish jarayonlariga ham, motivatsion jarayonlarga ham ta'sir etish; motivlar va mayllarning amaliyligini ko'tarish (masalan, bir xil ishni bajarishda hosil bo'ladigan charchash hislari bilan kechadigan zo'riqishlar chog'ida). Bu shaxs faoliyatida, natijaga darhol erishish mumkin bo'lmaganda, tavakkalli yoki xavfli tuyulgan vaziyatlarda, shuningdek, ekstremal sharoitlarda ish qobiliyatini vazifani bajarishga safarbar etishda juda muhim o'rin tutadi.

Umuman olganda, ruhiy jihatdan o'zini o'zi boshqarish ikki maqsadli ustanovkaga ega: bir tomondan, xizmat faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish uchun har tomonlama qulay psixologik shart-sharoit yaratish, boshqa tomondan dam olishga o'tishni yengillashtirish. Bunda katta tajriba natijasida shaxsning o'zi topgan oddiy ruhiy boshqaruv usullarni ("sodda" ruhiy boshqarish) ilmiy asoslangan mashqli usullarni egallashtirish farqlash lozim. Ruhiy boshqarish mashqli usullarni egallash deganda, odatda, avtonom, ya'ni oddiy vositalar bilan ixtiyoriy boshqarib bo'lmaydigan jarayonlarni maqsadli o'zgartirish

qobiliyati kiradi. Iroda to'siqlarni yengib o'tishga qaratilgan aqliy, maqsadga yo'naltirilgan psixik faollik bo'lib, maqsadga intilishda vujudga keladi va instinklar negizida shakllanadi[4].

Iroda faoliyati qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan ongli tuzilma va o'zini o'zi boshqarish sifatida, eng avvalo, o'ziga, o'z hissiyotlariga xatti-harakatlariga xukmronlik qilishdir. (1-rasm)

tushuniladi. Kutilgan natijaga faqat rejali ravishda takrorlab boriladigan mashqlar orqali erishiladi.

O'z ruhiyatini boshqarishning mohiyati shundaki, inson o'zining ruhiy holatiga va butun organizmiga ta'sir ko'rsatish uchun atrof muhit bilan muloqotda bo'lish va o'z organizmini bilish jarayonida to'planadigan his-tuyg'ularini muntazam mashqlar predmetiga aylantiradi. Irodaviy mashqlar yordamida ruhiy o'zini o'zi boshqarish organizmning faoliyat ko'rsatishiga doir doimiy qaytma aloqa, markaziy asab tizimining fiziologik jarayonlar bajarilgani to'g'risidagi refferant signallariga kabi muhim umumiy tamoyilga asoslanadi. Ushbu signallar tabaqalashgan tarzda idrok qilinishi va irodaviy mashqlar dasturining mazmuniga (ichki erkinlik hissini, keskinlik, zo'riqish, bo'shashish kabi his-tuyg'ularini mashq qildirish va h.k.) asos yaratishi mumkin.

Umuman, har bir sog'lom, mehnatga qobiliyatli bo'lajak xarbiy xizmatchi va xodim o'zini o'zi boshqarish usullarini egallashi mumkin. Ammo bunda irodaviy o'zini o'zi boshqarish usullaridan foydalanish samaradorligini pasaytiruvchi bir qator omillar mavjud ekanligini inobatga olish zarur. Ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

yoshlar mazkur mashqlarni bajarishga munosabati (uning ichki tayyorligi). Haddan tashqari o'ziga ishonish muvaffaqiyatga erishishga yordam bermaydi. Istakning o'zi natija bermaydi. Buning uchun muntazam ishlash, sabr-toqat va iroda zarur;

mashqlarning dastlabki bosqichida erishilgan muvaffaqiyat mashq qiluvchini uning mashg'ulotlarga munosabatida noto'g'ri yo'nalish berishi, o'ziga ortiqcha ishonishiga va qiyinchiliklarni yenga olmaydigan bo'lib qolishiga olib kelishi mumkin;

o'zini mashq qildirishning yomon sharoitlari. Halaqit beruvchi tashqi omillarni yo'q qiluvchi, o'zini bo'sh qo'yishga yordam beruvchi xotirjam sharoit yaratish kerak. Ruhiy boshqaruv usullarini egallab borgan sari xizmat faoliyatining haqiqiy sharoitlarida mashq qilishga o'tish mumkin;

shaxsning individual xususiyatlariga mos kelmaydigan o'zini o'zi boshqarish usulini noto'g'ri tanlash, shu bois ruhiyatni boshqaruvchi vositalar katta ehtiyotkorlik bilan, ularning samaradorligini doimiy nazorat qilgan holda tanlanishi kerak;

ishonuvchanlik va xayol surish qobiliyati kabi shaxsiy xislatlarning namoyon bo'lishidagi xususiyatlar. [7]

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Irodaviy o'zini o'zi boshqarish jarayoni uchta asosiy tamoyilga tayanadi[5]:

- relaksatsiya;
- vizuallashtirish;
- o'zini o'zi ishtirish.

Relaksatsiya tamoyilining mohiyatini tana va ruhning birgalikda ishlashga tayyorlanishi tashkil etadi. Aynan relaksatsiya paytida o'z ichki ovozini eshitish va o'z organizmingiz va tafakkur faoliyatingizning aloqasini his etishingiz mumkin. Relaksatsiya yoki bo'shashish tana va ruhni keraksiz zo'riqishdan va odamni bo'shashtirib yuboradigan jihatlardan ozod qilishni bildiradi, u insonga foydali psixologik va fiziologik ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi jarayon:

unda miya xotirjamlashgani sayin tana bo'shshadi, tana bo'shshagani sayin miya xotirjam bo'la boradi.

Vizuallashtirish intuiiv tafakkur onga kirib borishning turli yo'llaridan foydalanadi. Asosiysi manzara hosil qilish yoki miyangizda obrazlarni gavdalanitirish yo'lidir. Vizuallashtirish yo'nalgan tasavvurni eshitish, ko'rish, hid bilish, ta'm bilish, teri bilan sezish sezgilari hamda ularning kombinatsiyalari yordamida faollashtirishning turli usullarini bildiradi. Aslida, inson miyasi obektiv olam obrazlariga ham, ongda yuzaga keladigan obrazlarga ham bir xilda javob beradi. Shu bois vizuallashtirish ko'nikmalari insonga o'z ichki imkoniyatlaridan yaxshiroq foydalanish, ruhiy jarayonlarning kechishini faollashtirish imkonini beradi.

O'zini o'zi ishonitirish tamoyilining mohiyati shundaki, biz o'zini o'zi ishonitirish yordamida ichki obrazlarimizni ongimizda aks sado sifatida bir necha marta takrorlanadigan so'zlar bilan ifodalaymiz. O'zining ichki kuchi va qo'llab-quvvatlanishi bilan to'lgan bu so'zlar his-tuyg'ular darajasida chuqur qabul qilinadi. Bunday ichki aks-sadoni "Men buni qila olaman" so'zlarida namoyon bo'ladigan munosabat, niyat va mayl sifatida ifodalash mumkin. O'zini o'zi ishonitirish muvaffaqiyatga erishish mumkinligi haqida birinchi shaxs no-midan hozirgi zamonda ifodalangan aniq ta'kidir. Insonning o'ziga qarata aytgan so'zlari o'z maqsadlariga erisha olishiga bo'lganishonchini kuchaytiradi va qaysi yo'nalishda harakat qilish kerakligini ko'rsatadi. Bu so'zlar miyani maqsadga erishish borasida ishlashga va bunda faol ishtirok etishga majbur qiladi. O'zini o'zi ishonitirish - obrazlarni so'zda ifodalashga imkon beruvchi faol moyillikdir.

O'zini o'zi boshqarishning eng oddiy usullari:

O'zini o'zi boshqarishning eng oddiy usullarini qo'llashdan ko'zlangan maqsad bo'lajak xarbiy xizmatchi va xodimga xizmat doirasidagi harakatlarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun maqbul ichki sharoitni yaratishda yordam berishdan iborat. Bunda quyidagi bir qator jihatlar nazarda tutiladi:

insonning o'ziga nisbatan ijobiy ustanovkani mustahkamlash ("Men buning uddasidan chiqaman"), o'ziga ishonch hissini oshirish;

hissiy-affektiv jarayonlarni (ayniqsa, tavakkal, qo'rqinch hissi, kasbiy harakatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lganvaqt taqchilligi kabilarni) uyg'unlashtirish va faollashtirish;

O'zini o'zi boshqarishning eng oddiy usullarini qo'llash, birinchi navbatda, rag'batlantiruvchi va yo'naltiruvchi boshqaruvni kuchaytiradi. Ularga yoshlar o'ziga, o'z imkoniyatlariga, kutilayotgan kasbiy natijalariga nisbatan ijobiy mayllarni kuchaytirish va salbiy mayllarni bartaraf etish kiradi.

Yoshlarda irodoviy sifatlarni rivojlantirish, jismoniy tayyorgarligi va faoliyat samaradorligini ta'minlovchi psixologik omillardan sanaladi. Jismoniy tayyorgarligida yuklamalarni aniq va davomiy bajarilishlarini taminlaydigan irodoviy sifatlarni namoyon qilishlari muhimdir.

Jismoniy tayyorgarlik birinchi navbatda shaxsning jismoniy sifatlarni rivojlantiradi. Jismoniy sifatlarda albatta jismoniy yuklamalarni uzliksiz tartibda bajarish evaziga sodir bo'ladigan fiziologik jarayondir. Jismoniy yuklamalarni bajarish shaxsda uch bosqichdagi ruhiy holati bilan bog'liq amalga oshiriladi. Ushbu bosqichlarda inson ruhiyatining sog'lomligi va aniq maqsadlarga qaratilganligi uning jismoniy o'sishi va irodoviy chidamkorligi rivojlanishini ta'minlaydi.[6]

Mashg'ulotdan oldingi psixologik holat.

Mashg'ulot paytidagi psixologik holat.

Mashg'ulotdan keyingi psixologik holat.

Mashg'ulotdan oldingi ruhiy holatida, jismoniy yuklamalarni bajarish, aniq maqsad va rejalar asosida amalga oshirish kerak bo'ladi. Ushbu bosqichda, jismoniy mashg'ulot

bilan shug'ullanish, kundalik ish rejasiga aniq qilib belgilanib, har qanaqa sabab va kelib chiqishi mumkin bo'lganqiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan motiv va irodoviy sifatlarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Bu psixologik jarayon o'z o'rnida bo'lajak harbiy xizmatchi va xodimlarni mashg'ulotlarini bajarish uchun mo'ljallangan joyga olib keladi hamda murabbiy ko'rsatmalari asosida o'z mashg'ulotlarini boshlaydi.

Mashg'ulot paytidagi psixologik holat, reja asosida belgilangan yuklamalarni a'lo darajada bajarishga undovchi motivatsiya hisoblanadi. Ikkinchi bosqich jismoniy tayyorgarlikning asosini tashkil etib, unda oldindan belgilab olingan yuklamalarning bajarilish jarayonidir. Mashg'ulot paytida yuklamalarni texnik jihatdan mukammal darajada bajarilishi fiziologik rivojlanish va psixologik chidamkorlikni ta'minlaydi.

Mashg'ulotdan keyingi psixologik holat insonni jismoniy va ruhiy zo'riqishlarini yengib o'tib, keyingi mashg'ulotgacha har tamonlama tayyor bo'lishga qaratilgan psixologik tiklanish bosqichidir.

Bo'lajak harbiy xizmatchi va xodimlar o'z kasbiy faoliyatida kun tartibiga qat'iy amal qilib, jismoniy tayyorgarlikni belgilangan reja asosida olib bora, qo'yilgan vazifalarni vaqtda bajarib bora, o'z ko'nikma va malakalarini shakllantirib irodoviy sifatlarni chiniqtiradi.

**Takliflar.** Bizningcha irodoviy sifatlarni mustaqil tarbiyalash va rivojlantirish quyidagi psixologik tavsiyalar orqali amalga oshirilishi mumkin:

Jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish uchun, ma'lum bir sport turiga qiziqishini shakllantirish kerak (boks, karate, kikkoks, dyuzdo, erkin kurash, futbol);

O'zi yoqtirgan sport turiga taalluqli qisqa metrajli filmlar va video lavhalarini ko'rsatish orqali tezkor tafakkurni rivojlantirish;

Jismoniy yuklamalarni yengildan murakkabiga qarab bajartirish orqali psixologik va fiziologik barqarorlikni ta'minlash; Muvaffaqiyotga intilish motivini shakllantirish;

O'ziga ishonchini oshirish uchun psixokorreksiya usullardan foydalanish (trening, rolli o'yinlar va psixogimnastik mashg'ulotlar);

Chidamkorlik va qo'rqinchni yo'qotadigan psixologik ustanovkani singdirish;

Irodani tarbiyalash yengildan qiyinga, ya'ni nisbatan arzimasi qiyinchiliklarni o'z vaqtda bartaraf etishni singdirish;

Qabul qilingan har qanday qarorni iloji boricha oxirigacha yetkazish;

Maqsadga erishish bosqichlarini ko'ra olish va tinimsiz xarakter qilish.

**Xulosa.** Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash joyizki, yoshlarni jismoniy tayyorgarligi, o'zlarini irodoviy boshqara olishi, murakkab vaziyatlarda tezkor va aqlli qaror qabul qilishi o'ziga belgilangan burchini sadoqat bilan ado etishi ruhiy barkamoligiga bog'liqdir. Xizmat faoliyatida kuchli irodaga ega bo'lgan, jismonan baquvvat, o'z xisssiyotlarini boshqara oladigan, jinoyatchilikning oldini olish va qahshi kurashishda o'zining jismoniy va aqliy imkoniyatlaridan oqilona foydalana oladigan bo'lajak harbiy xizmatchi va xodim ko'proq muvoffaqiyatga erishadi. O'z maqsad va belgilangan chora-tadbirlarni yuksak darajada bajarishda irodoviy fazilatlarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa bo'lajak harbiy xizmatchi va xodimlarning o'z vazifasi va burchiga sadoqat bilan yondashishiga ko'maklashadi. Yuqoridagi psixologik tavsiyalarga amal qilib, jismoniy mashg'ulotlarni olib borish, biz o'ylaymizki, bo'lajak harbiy xizmatchi va xodimlarning jismonan va ruhan rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi va albatda yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga zamin yaratadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". T.: "O'zbekiston" 2017y. 221-b
2. Mirziyoyev Sh.M. 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29-iyun "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 267-son Qarori

4. Arifxodjayeva I.X. “Ichki ishlar idoralari faoliyatida kasbiy-psixologik va pedagogik tayyorgarlik”: Darslik. O‘zbekiston Respublikasi IIV -2013 yil.
5. Asyamov S.V., Pulatov Y.S. “Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy-psixologik treningi”: O‘quv qo‘llanmasi. T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi - 2002 yil.
6. Arzikulov D.N., Gapparov Z.G., Vaxabova D.B. “Psixologiya va sport psixologiyasi”. O‘quv qo‘llanma: / Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: - 2017 yil.
7. Vasilev V.L. “Yuridicheskaya psixologiya”-Uchebnik dlya VUZov SPB, 2005 yil.